

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№12 - SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, DEKABR





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

"Tadbirkor va ishbilarmon" MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, "Marketing" kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU "Marketing" kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, "Marketing" kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, "Innovatsion menejment" kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, "Menejment" kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, "Yashil iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, "Turizm va servis" kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjonovich, TDIU, "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Bo'laev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti "Iqtisodiyot va bo'chmas mulkni boshqarish" kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, "Menejment" kafedrasini dotsenti;

Maxmudov Toxirjon Olimjonovich, PhD., NamDTU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsent v.b.

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li, PhD., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Ekonometrika va iqtisodiy modellashirish kafedrasini katta o'qituvchisi

Elektron nashr 655 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 25-dekabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA “YASHIRIN” HAMDA “XUFYONA” IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH ZARURATINING EMPERIK TAHLILI	7
Nazarova Ra’no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o’g’li	
O’ZBEKISTONDA TIKUV KIYIMLARI BOZORINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	23
Soliyev Axmadjon, Maxkamov Iqboljon	
IQTISODIY FAOLLIKNI BAHOLASHDA ILG’OR YONDASHUVLAR HAMDA O’ZBEKISTONDA BIZNES FAOLLIGI INDEKSINI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	32
Jumayev Olimjon Sadulloevich, To’ymatov Muzaffarjon Yoqubjon o’g’li	
FIRIBGARLIK HOLATLARINI AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI ORQALI ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI	40
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
SANOAT TARMOG’INI RIVOJLANISHINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	47
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISHGA ZAMONAVIY USLUBIY YONDASHUVLAR	56
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
IQTISODIY ISLOHATLARNING MILLIY MODEL VA YANGI O’ZBEKISTON STRATEGIYASI ...	62
Srajdinova Nodira Shavkatovna	
TEMIRYO’L TRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O’RNI	69
Eshboyev Ulug’bek Farxodovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI	76
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VAKOLATLI IQTISODIY OPERATORLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH	81
Ismatullayeva Shoiri Nurlibekovna	
SANOAT KORXONALARI DEMOGRAFIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIKGA TA’SIRINING EKONOMETRIK MODELLARI	92
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
O’ZBEKISTONDA LIZING XIZMATLARI KO’RSATISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	100
Xolov Bahodir O’ktamovich	
O’ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI	107
Qo’ziboyev Umarbek Ulug’bekovich	
OLIY TA’LIM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGNING O’RNI	114
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА К ПРИЁМУ ПОСЕТИТЕЛЕЙ	121
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
MINTAQANING QURILISH TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH NAZARIYALARI	134
Aminov Sardorbek Sanjarbekovich	
MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHDA MAHSULOT BOZORI REGULYATORI TIZIMINI QO’LLASHNING AXAMIYATI	139
Rustamov Narzillo Istamovich	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДОВЕРИЯ К ТОВАРАМ НА РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКАХ	147
Абдурашидова Нигора Алишеровна, Кахрамонова Шахзода Дилмурод кизи, Болтаева Севинч Учкун кизи	
XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDA STRATEGIK MENEJMENTNING ROLI VA AHAMIYATI	158
Alimova Dildora Damirovna, Aslonov Abdulla Xolmurodovich	

ICHKI AGRAR BOZOR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	169
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNINGNI JORIY ETISH ORQALI TO'QIMACHILIK SANOATINING RAQOBATBARDOSHLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH	174
Xakimova Zebinisa Muzaffarovna	
MINTAQADA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	182
Abdullayeva Zulfiya Sadullayevna	
ВЛИЯНИЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГА И ИНСТРУМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВОЙ РЕКЛАМЫ.....	187
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Халикова Доно Джахангировна, Шавкатова Шахзода Шухратовна	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	202
Zaxidova Umida Farxodovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЕСТОРАННОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ ВНЕДРЕНИЕ И ПРОДВИЖЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ УСЛУГ	216
В.И. Назаров	
QURILISH TARMOG'IDA OLIV BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA SOXANI RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI	225
Arifdjanova Zilola Dilshodovna	
MINTAQADA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI OQIMLARINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	234
Zakirov Mir Timur Zakir o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УКРАИНЕ И УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОСТИ.....	242
Вдовиченко Лариса Юрьевна, Азизова Сайёра Хамидуллаевна	
ВЛИЯНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ НА УСТОЙЧИВОСТЬ И ИННОВАЦИОННОСТЬ ТРАНСПОРТНЫХ КОМПАНИЙ УЗБЕКИСТАНА	253
Кадирова Шарофат Амоновна	
РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УСИЛЕНИИ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ ЛОЯЛЬНОСТИ.....	272
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Ж.Ж. Буриева, З.А. Юсупбекова	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ	282
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA KPI TIZIMINI QO'LLASH.....	290
Mahmudova Dilafruz Hasanovna	
FACTORS AND METHODOLOGICAL APPROACHES INFLUENCING THE INNOVATION MANAGEMENT MECHANISM IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	299
Karimov Muzaffar Abdumalik ugli	
CRM-УПРАВЛЕНИЕ В СЕТЕВЫХ СУПЕРМАРКЕТАХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН: РОЛЬ КЛИЕНТСКИХ ДАННЫХ, ПРОГРАММ ЛОЯЛЬНОСТИ И ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ	305
Юсупов Улугбек Шукруллаевич	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHDA CRM TIZIMLARINING O'RNI	314
Xayitaliyev Nazirjon Yunusaliyevich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARI TA'MINOT TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	323
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH	333
Raimov Otamurod Xolmurotovich	

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT DASTURLARINING MOLIVAVIY IJROSINI TA’MINLASHDA MARKETINGDAN FOYDALANISH: EMPIRIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL.....	340
Primova Nigora Ikrom qizi	
HUDUDIY KICHIK SANOAT ZONALARINING SAMARADORLIGINI INTEGRALLASHGAN INDIKATORLAR TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH	346
Jalolova Sarvinoz Ulug‘bek qizi	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGIGA EKOLOGIK VA INNOVATSION OMILLAR TA’SIRI	356
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li	
MINTAQADA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINING TUTGAN O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	367
Boltayev Mag‘rurbek Allayarovich	
OLIY TA’LIM MUASSASASIDA ZAMONAVIY MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIXATLARI.....	374
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQUARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOIYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNI BAHOLASH.....	381
Achilov Ilmurad Nematovich	
O‘ZBEKISTON OZIY-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA STRATEGIK BOSHQARUV VA INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR	391
Tuychieva Begoyim Voxidjon qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARI MARKETING FAOLIYATIDA MOTIVATSIYA YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH	400
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TOURISM AND HOSPITALITY: A COMPARATIVE ANALYSIS AND ROADMAP FOR UZBEKISTAN.....	407
Safaeva Sayyora Rixsibayevna	
THE EVOLUTION AND METHODOLOGICAL INTEGRATION OF THE CONCEPT OF SUSTAINABLE USE	417
Kilichov Mukhriddin	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI STRATEGIK BOSHQARISHNING MAZMUNI, ASOSIY PRINSIPLARI VA FUNKSIONAL VAZIFALARI.....	433
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	
BUXORO VILOYATI TURIZM XIZMATLARI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	442
Jalolov Otabek Oybek o‘g‘li	
OLIY TA’LIMDAGI BAHOLASH TIZIMI BO‘YICHA ISHONCH DARAJASINI ANIQLASH VA ISHONCH INDIKATORLARINI HISOBLASH METODLARI	451
Hakimov Hakimjon Abdullo o‘g‘li, Hakimova Gulnora Abdullo qizi	
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TA’LIM PLATFORMALARINING ROLI	459
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROTLARNI O‘RNI.....	467
Samatov Azizbek Abdulaxatovich	
MOYLI EGINLAR YETISHTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....	473
Valiyeva Aziza Anvar qizi	
THE ECONOMIC AND ENVIRONMENTAL EFFICIENCY OF AGRIVOLTAIC SYSTEMS IN UZBEKISTAN’S AGRICULTURAL SECTOR	481
Amonov Sardor Zamon ugli	
AMORTIZATSIYA QILINADIGAN AKTIVLAR VA ULARNI HISOBGA OLISHNING OBYEKTIV ZARURATI.....	490
Aminboyev Jaloliddin Otabek o‘g‘li	

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA MARKETING JARAYONLARINI YO'LGA QO'YILGANLIK HOLATI VA RIVOJLANISH VEKTORLARI.....	500
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	508
Salomova Sarvinoz Salimovna	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI.....	515
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIIY-STATISTIK TAHLILIGA DOIR.....	523
Saburov Jumanazar Saliyevich	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РЕСУРСА (HR) В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	531
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Урозбоев Хайрулла Муродбой угли, Умаров Фаёзбек Суннатилла угли	
MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH USULLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..	542
Djumanov Saitmurod Alibekovich	
TADBIRKORLIKDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH VA MENEJMENTNING O'ZARO TA'SIRI	549
Sultonboyeva Munira Baxodirovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA TOVAR ZAXIRALARINI BOSHQARISH MASALALARI	558
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
IQTISODIIYOTDA TARKIBIIY O'ZGARISHLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	566
Ochilov Akram Odilovich, Qo'ziboyeva Nargiza Hamro qizi	
JOZIBADOR TURISTIK MAHSULOTLARNI SHAKLLANTIRISH VA SIFATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	574
Mirzabayev Jamshid Irkinovich	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI.....	581
Gafurov Anvar Bazarbayevich	
ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УПРАВЛЕНИИ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ	591
Тарават Абдул Салам	
INNOVATSION IQTISODIIYOT SHAROITIDA QAYTA SUG'URTALASH INSTITUTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI VA YO'NALISHLARI	603
Sherov Sanjar Radjabovich	
BANKLAR VA MARKETING SIYOSATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	613
Boboxo'jayeva Fotima Kaxramonovna	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ	619
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
O'ZBEKISTONDA BIZNES VA TADBIRKORLIK: HOZIRGI HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	626
Ravshanov Azizbek Ravshanovich	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI: NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA KO'P OMILLI EKONOMETRIK BAHOLASH	634
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
MINTAQA SANOAT TUZILMASINING STRUKTURAVIY O'ZGARISHLARI VA IQTISODIIY O'SISH DINAMIKASI TAHLILI.....	644
G'aymatova Dilafro'z G'ofurjonovna	

O‘ZBEKISTON OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA STRATEGIK BOSHQARUV VA INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR

Tuychieva Begoyim Voxidjon qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti tadqiqotchisi

E-mail: begoyimtoychiyeva99@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari bozorini barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan strategik boshqaruv va institutsional yondashuvlar taklif etilgan. Hududiy nomutanosibliklar, resurslardan foydalanish samaradorligi, davlat va xususiy sektor hamkorligi, shuningdek, institutsional mexanizmlarning o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijasida oziq-ovqat mahsulotlari bozorining barqaror ta’minlashga qaratilgan strategik yondashuvlar keltirilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hamda ayrim davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligi holatining GHI indeksi bo‘yicha tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat tizimi, barqaror rivojlanish, hududiy boshqaruv, strategik rejalashtirish, institutsional yondashuv, oziq-ovqat xavfsizligi, GHI (Global Hunger Index) indeksi.

Annotatsiya

В статье предложены стратегическое управление и институциональные подходы, направленные на обеспечение устойчивого развития рынка продовольственных товаров в Узбекистане. Раскрыта роль региональных диспропорций, эффективности использования ресурсов, сотрудничества государственного и частного секторов, а также институциональных механизмов. В результате исследования представлены стратегические подходы к обеспечению стабильности продовольственного рынка. Кроме того, проведён сравнительный анализ состояния продовольственной безопасности Республики Узбекистан и ряда других стран на основе индекса глобального голода (GHI).

Ключевые слова: продовольственная система, устойчивое развитие, территориальное управление, стратегическое планирование, институциональный подход, продовольственная безопасность, Глобальный индекс голода (GHI)

Abstract

The article proposes strategic management and institutional approaches aimed at ensuring the sustainable development of the food products market in Uzbekistan. It highlights the role of regional disparities, resource utilization efficiency, public-private sector cooperation, and institutional mechanisms. As a result of the study, strategic approaches to achieving stability in the food market are presented. Additionally, a comparative analysis of the food security situation in the Republic of Uzbekistan and several other countries is conducted based on the Global Hunger Index (GHI).

Keywords: food system, sustainable development, territorial management, strategic planning, institutional approach, food security, Global Hunger Index (GHI)

KIRISH

Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlayapti. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir. Bunday holatda inson manfaatlari yo'lida ham qishloq xo'jaligi rivojlanadi, ham atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi ta'minlanadi. Global iqlim o'zgarishlari, aholi sonining o'sishi va resurslar cheklanganligi sharoitida oziq-ovqat tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash har bir davlat uchun ustuvor vazifaga aylangan. O'zbekiston uchun ushbu masala, ayniqsa, hududlar kesimida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish salohiyati, logistika infratuzilmasi va bozor mexanizmlarining turlicha rivojlanganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatning milliy oziq-ovqat xavfsizligi tizimini shakllantirish bo'yicha vazifalarni hal etish aholining turmush darajasini oshirish va iqtisodiy ko'rsatkichlarni barqarorlashtirishga qaratilgan choralarni amalga oshirish yuzasidan Yu.A.Dyuner, N.A.Yurklarning "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosiy choralarni amalga oshirish" nomli maqolasida oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi, oziq-ovqat inqirozini yengib o'tish masalalari oziq-ovqat suvereniteti strategiyasining asosini tashkil etishda hokimiyat tuzilmalari, biznes hamjamiyat va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari sa'y-harakatlarining birlashuvi ichki oziq-ovqat bozorini barqarorlashtirish va mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydigan yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishning yangi mexanizmlari yoritib berilgan.

A.N.Shatalova hamda M.V.Taradinalarning "Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish xususiyatlari" nomli ilmiy tadqiqot ishlarida oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini boshqaruv mexanizmlari bo'yicha yondashuvlari keltirilgan. Ushbu oziq-ovqat sanoati tarmoqlari boshqaruvining rivojlanishi sohasida Yevropa Ittifoqining ko'pgina mamlakatlarida, shu jumladan, uning liderlaridan biri bo'lgan Germaniyada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, oziq-ovqat mahsulotlarining ekologik xavfsizligini ta'minlash, tashqi tabiiy muhitni asrash muhim vazifalar hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslama tahlil, statistik kuzatuvlar hamda institutsional yondashuv metodlaridan foydalanish asosida o'rganilgan. Shuningdek, hududiy rivojlanish nazariyalari va oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro tajribalar tahlil qilingan. Ushbu tajribalar asosida mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga doir strategik yondashuvlar, ayniqsa, hududiy rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirilishi zarur. Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun hududiy strategiyalarni quyidagicha shakllantirishida har bir hududning iqlim, suv, yer resurslariga qarab moslashuvchan ishlab chiqarish yo'nalishlarini tanlash, mahalliy

ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish orqali samaradorlikni oshirish, mahalliy darajada oziq-ovqat zaxiralarini yaratish va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, hududiy agrotexnologik xaritalar, sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini joriy qilish asosida boshqaruv mexanizmlarini ishlar chiqish tadqiqot ishining asosiy metodologiyasi hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi. Shuningdek, oxirgi uch yilda import o'rnini bosuvchi 75 turdagi 289,9 million AQSh dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi.

Oziq-ovqat xavfsizligi jamiyat hayotida juda katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Birinchidan, u insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirish, sog'liqni saqlash va yashash sifatini oshirish uchun asosiy shart hisoblanadi. Yetarli va sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlanmagan jamiyatlarda sog'liq bilan bog'liq muammolar keskin ortib, aholining umumiy salomatligi va mehnat salohiyati jiddiy zarar ko'radi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini, inson kapitalini va ijtimoiy farovonlikni sezilarli darajada pasaytiradi. Jahon mamlakatlarining rivojlanishining aholining o'sishi, oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj orttirishi bilan bir qatorda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga doir muammolar ham ortib boradi. Bugungi kunda oziq-ovqat ta'minoti va xavfsizligini ta'minlanishida ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog'liq. Shu bois, mamlakatimizda dunyo bozorlarida yuzaga kelgan keskin tebranishlarning ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish sifatini sezilarli darajada yaxshilash, aholi salomatligi uchun ko'plab xavf omillarini kamaytirish imkonini beradigan bir qator muhim chora-tadbirlar qabul qilindi.

Agar raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, so'nggi 2 yilda jami 193 ming gektar yer maydoni 643 ming aholiga ajratildi. Natijada 2,5 million aholi bandligi ta'minlanib, daromad manbai yaratildi. Bunda ijtimoiy daftarlarga kiritilgan 120 ming hamda 45 mingdan ortiq mehnat migrantlariga yer ajratilib, ish va daromad manbaiga ega bo'lishiga ko'mak berildi. Ajratilgan maydonning 58 ming gektariga sabzavot, 27 ming gektariga poliz, 22 ming gektariga kartoshka, 26 ming gektariga dukkakli, 6 ming gektariga moyli, 20 ming gektariga donli va boshqa ekinlar ekildi. Ushbu maydonlar va 108 ming gektarda parvarishlanayotgan takroriy ekinlar hisobiga 2023-yil yakuniga qadar 5 million tonna oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish rejalashtirilgan. Takroriy ekin sifatida 36 ming gektar sabzavot, 16 ming gektar kartoshka, 11 ming gektar poliz, 7 ming gektar moyli, 33 ming gektar dukkakli va 5 ming gektar boshqa ekinlar ekildi.

Aytish o'rinliki, mavjud global vaziyatdan kelib chiqib, mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sohaga bozor

munosabatlarini joriy etish borasida keng ko‘lamli islohotlar dasturi amalga oshirilyapti.

Aholi sonining o‘sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o‘zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga ta‘sir etuvchi asosiy omillardir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha bir qator choralar amalga oshirilishi natijasida O‘zbekiston dunyoda egallagan o‘rnini mustahkamlashga erishdi va bosqichma-bosqich global reytinglarda o‘z mavqeyini yaxshilab oldi. O‘zbekiston Respublikasi 2018-yilda Global ochlik indeksi bo‘yicha 119 mamlakat orasida 52-o‘rinni egallab, 12,1 ko‘rsatkich bilan «mo‘tadil» darajaga erishdi. Biroq, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlari ta‘minoti barqarorligiga erishish, kam daromadli oilalarning xarid qobiliyatini oshirish, mahsulotlar narxi va miqdori keskin o‘zgarishining oldini olish hal etilishi zarur bo‘lgan muammolardan hisoblanadi.

Alohida qayd etish o‘rinliki, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan bugungi kunda yer va suvdan foydalanish, agrosanoat majmui, o‘rmon xo‘jaligi, ekologiya, chorvachilik va boshqa ko‘plab yo‘nalishlar bo‘yicha manfaatli hamkorlik qilinayapti. O‘zaro hamkorlikda oziq-ovqat xavfsizligi, fundamental ilmiy tadqiqotlar, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, Orolbo‘yining ekologik muammolarini hal qilish va boshqa sohalarida aniq loyiha va tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan 2030-yilga qadar hamkorlik bo‘yicha yangi dasturni ishlab chiqish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatda ham oziq-ovqat xavfsizligi sohasida hamkorlikni kengaytirish borasida bir qator takliflarni ilgari surib keladi. Jumladan, Yevrosiyo iqtisodiy kengashi yig‘ilishida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tovarlari importi o‘rnini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan faol egallashni rag‘batlantirish, “yashil” yo‘laklar, shu jumladan, “Yevrosiyo agroekspressi”ning to‘laqonli faoliyatini ta‘minlash, ilmiy-amaliy tadqiqotlarni birgalikda olib borish va innovatsiyalarni joriy etishni qo‘llab-quvvatlash, mamlakatlarimiz agrobiznes vakillari kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish borasida tashabbuslar ilgari surildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish siyosati har qanday mamlakatda sog‘lom va barqaror ovqatlanish standartlarini o‘rnatish uchun zarurdir. Maktablar, shifoxonalar kabi muhim muassasalarda ovqatlanishni yaxshilash uchun milliy va submilliy darajadagi oziq-ovqat xaridlari bo‘yicha salohiyatni oshirishimiz kerak. Chunki oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va sog‘lom ovqatlanish aholi salomatligi uchun eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblangan ko‘plab yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun oziq-ovqat, jumladan, un mahsulotini fortifikatsiyalash, tuzni yodlashtirish tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Sog‘lom va to‘g‘ri ovqatlanish, ortiqcha vazn va semizlikni bartaraf etish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish borasida targ‘ibot-tashviqot ishlari yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, sog‘lom ovqatlanish ratsioniga doir tavsiyalarni yurtdoshlarimizga yetkazish, turli yoshdagilar uchun jismoniy mashqlarni o‘rgatishni yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida “To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi”

yangi umummilliy harakatini mahallalardan boshlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari, suv va energetika resurslarining tobora taqchil bo'lib borayotgani ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar uchun jiddiy sinov bo'lmoqda. Bu esa, energetika va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, global logistika va qo'shimcha qiymat zanjirlarini yaratish, sohaga investitsiya va eng zamonaviy texnologiyalarni jalb etish masalalari dolzarbligini oshiradi. Shundan kelib chiqib, oziq-ovqatlar makro va mikronutriyentlarga boyligini ta'minlash hamda mahsulotlar eksport geografiyasini kengaytirish maqsadida 2030-yilgacha 50,4 ming gektarda organik mahsulotlar yetishtirish rejalashtirilgan.

Umuman olganda, oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning ta'minlanishi aholi farovonligini oshirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini baholash uchun bir qator reytinglar va indekslar mavjud. Bularndan eng mashhuri Global Hunger Index (GHI) – Jahon ochlik indeksidir. GHI davlatlarning ochlik holati va oziq-ovqat bilan ta'minlanganligini aniqlashda keng qo'llaniladi. Mazkur indeks ochlik darajasini to'rt asosiy ko'rsatkich orqali baholaydi: to'yib ovqatlanmaslik, bolalarning bo'y o'sishi, vazn yetishmasligi va bolalar o'limi darajasi. Ushbu indeks mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi samaradorligini ko'rsatadi va ularga zarur siyosiy chora-tadbirlarni belgilashda yordam beradi.

1-jadval.

2000-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi hamda ayrim davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligi holati (GHI indeksi bo'yicha)¹

Davlat nomi	GHI ko'rsatkichi			
	2000-yil	2008-yil	2016-yil	2024-yil
Gruziya	12.0	6.6	5.4	<5
Ruminiya	7.9	5.7	5.0	<5
Rossiya federatsiyasi	10.4	5.9	5.4	<5
Turkiya	11.4	6.5	5.4	<5
O'zbekiston	24.3	13.2	5.9	<5
Qozog'iston	11.2	11.1	5.6	5.3
Armaniston	19.2	11.7	5.6	5.1


Global ochlik indeksi (GHI) butun dunyo bo'ylab, mintaqalar va mamlakatlar bo'yicha ocharchilik holatini kuzatib boradi va ocharchilikni bartaraf etish uchun harakatlar eng zarur bo'lgan joylarni ajratib ko'rsatadi. Ochlikning uzoq muddatli tendensiyalarini o'lchash vositasi sifatida 2024-yilgi GHI shuni ko'rsatadiki, ba'zi mintaqalar va mamlakatlarda sezilarli yaxshilanishlar borligiga qaramay, global ochlik o'rtacha darajada qolmoqda – 2016-yildagi darajadan deyarli o'zgarmagan. Bundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, 2030-yilga qadar ochlikni yo'q qilish maqsadiga erishish tobora imkonsiz bo'lib bormoqda.. Ahamiyatlisi shundaki, mamlakatimizda bu sohada xatti-harakatlar mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlanganligi

¹ Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

natijasida ushbu ko'rsatkich oxirgi yillarda sezilarli darajada yaxshilanganligini va bir qator rivojlangan davlatlar qatoridan joy olganligimizni keltirib o'tish lozim.

Ushbu jadvalda O'zbekiston va boshqa ayrim davlatlarning 2000-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davr mobaynida Global Hunger Index (GHI) bo'yicha oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari aks ettirilgan. GHI indeksi ochlik darajasini baholovchi xalqaro vosita hisoblanadi va past ko'rsatkichlar oziq-ovqat xavfsizligining yuqori darajasini bildiradi.

2000-yilda Gruzija (12.0), Ruminiya (7.9), Rossiya Federatsiyasi (10.4), Turkiya (11.4), O'zbekiston (23.3), Ozarbayjon (11.2) va Armaniston (19.2) mamlakatlari turlicha natijalarga ega bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan barcha davlatlarda bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilanganligini ko'rish mumkin. Xususan, O'zbekistonning ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanib, 2024-yilga kelib ochlik ko'rsatkichi minimal darajaga yetgan (5 dan kam).



1-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning strategik vazifalari¹

Bu holat davlatlar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida olib borilgan samarali siyosat, iqtisodiy islohotlar, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ishlab

¹ Muallif ishlanmasi

chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi natijasidir. Shuningdek, taqdim etilgan raqamlar oziq-ovqat xavfsizligi masalasining davlatlar rivojlanishidagi oʻrni naqadar muhimligini yana bir bor koʻrsatadi va bu yoʻnalishda xalqaro tajriba almashinuvi hamda samarali strategiyalarni amalga oshirish zarurligini taʼkidlaydi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida aniq ishlab chiqilgan strategiyaning ahamiyati juda katta. Strategiya iqtisodiy rivojlanishning aniq maqsadlarini belgilash, kerakli resurslarni samarali taqsimlash va amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini taʼminlash imkonini beradi. Aynan strategik yondashuv orqali iqtisodiy islohotlarning uzoq muddatli istiqbollari va natijalari oldindan prognoz qilinadi va rejalaniadi.

Mazkur ustuvor yoʻnalishning asosiy maqsadi – respublikaning barcha aholisi oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirishdan iborat. Ustuvor yoʻnalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlashga qaratilgan.

Strategiya doirasida amalga oshirilgan ishlar natijasida bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, Oʻzbekiston Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (The Global Food Security Index – GFSI)da 12 pogʻona yuqoriladi. 2019-2022-yillarda oziq-ovqat xavfsizligi boʻyicha eng yuqori oʻsishga erishgan 10 ta mamlakat ichida birinchi oʻrinni egalladi. 2022-yilda Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi reytingida Oʻzbekiston indeks koʻrsatkichi 57,5 ni tashkil qilib, 73-oʻrinni qayd etdi. Vaholanki, 2017-yilda Oʻzbekiston 54,7 ball bilan 88-oʻrinda boʻlgan. Shu oʻrinda “The Global Food Security Index” haqida qisqacha toʻxtalib oʻtsak. Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi 113 mamlakatda oziq-ovqatning arzonligi, mavjudligi, sifati va xavfsizligi, barqarorligi va moslashuvi kabi masalalarni koʻrib chiqadi. Indeks rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarda oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlovchi omillarni oʻlchaydigan 68 ta noyob koʻrsatkichdan tuzilgan dinamik miqdoriy va sifat jihatidan taqqoslash modelidir.

GFSIning baholash metodologiyasi shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda eng katta ijobiy oʻzgarishlar shaharlarning oziq-ovqat oqimini oʻzlashtirish qobiliyati, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga import tariflar kabi koʻrsatkichlarda kuzatilgan.

Sohadagi bugungi ustuvor yoʻnalishning asosiy maqsadi – oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirishdan iborat. Ustuvor yoʻnalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlashga qaratilgan. Bu esa, Oʻzbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlarining ikkinchisi, yaʼni “Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, isteʼmolni yaxshilash va barqaror qishloq xoʻjaligini targʻib qilish”da belgilangan vazifalarga erishishga xizmat qiladi. Chunki sogʻlom va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligini taʼminlash isteʼmolchilar uchun ham, agrobiznesning eksport salohiyatini oshirish uchun ham birdek muhim ahamiyatga ega.

Strategiya iqtisodiy islohotlar davomida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan turli xavflarni oldindan aniqlash, baholash va ularga qarshi samarali choralarni koʻrish

imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, aniq strategik rejalashtirish iqtisodiy o‘rishni ta’minlovchi barqaror siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda strategiya mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda aholi farovonligini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, strategiya orqali islohotlar natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni boshqarish, jamiyatning bu jarayonlarga moslashishini osonlashtirish ham mumkin bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishning hududiy strategiyasi hududlarning tabiiy, iqtisodiy, va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning oziq-ovqat bilan ta’minlanish barqarorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir. Bu strategiya hududiy resurslardan samarali foydalanish, oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, va taqsimot tizimini takomillashtirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashni maqsad qiladi.

Birinchidan, tabiiy resurslardan samarali foydalanishda hududning biologik xilma-xilligini saqlab qolish uzoq muddatli oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, Oziq-ovqat ishlab chiqarishni rivojlantirishda hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan klasterlar yaratish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin.

Uchinchidan Taqsimot va infratuzilmani takomillashtirishda mahsulotlarni saqlash uchun omborxona tizimlari, transport imkoniyatlari va sovitish tizimlarini modernizatsiya qilishni talab qiladi.

Shuningdek, Ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, Ekologik barqarorlikni ta’minlash, Texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish, qishloq xo‘jaligida monitoring tizimlarini yo‘lga qo‘yish, hosildorlikni oshirish uchun biotexnologiyalarni joriy qilish hamda Hududlararo va xalqaro hamkorlikda resurslarni o‘zaro taqsimlash va kooperatsiyani kuchaytirish oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash zarur. Hududlarning o‘zaro tajriba almashinuvi va hamkorlik dasturlarini rivojlantirish barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Mazkur strategiya hududlarning o‘ziga xos imkoniyatlari va muammolarini chuqur tahlil qilish orqali, mahalliy ehtiyoj va resurslarga asoslangan tarzda amalga oshirilishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentabr PQ-4821-son “Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4990322>

2. Волкова Н.А., Ясковой Д.В. Анализ конкурентоспособности пищевых предприятий. УДК: 338.45:664.6(477) <http://orcid.org/0000-0001-6401-5584>.

3. Kadirov, A. (2021). Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kontrolling tizimi samaradorligini baholash. Iqtisodiyot va ta'lim, (3), 152-158.
4. Кади́ров, А. М. (2021). Модел обеспечения экономической устойчивости промышленных предприятий на основе системы контроллинга.
5. Kadirov Abdumalik Theoretical and methodological foundations of ensuring financial and economic stability of enterprises. E3S Web of Conferences 402, 08005 (2023) TransSiberia 2023 8005 (08005), 1-15
6. Дырдонова А.Н. Управление устойчивым развитием промышленных кластеров / Автореферат диссертации...доктора экономических наук. Курск. 2019. 48 с.
7. Шаталова А.Н. “Особенности формирования стратегии устойчивого развития предприятий пищевой промышленности”. Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент № 2, 2020.
8. Щетинина И.В., Калугина З.И., Фадеева О.П., Чупин Р.И. Продовольственная безопасность России в условиях глобализации и международных граничений. – Новосибирск: ИЕОПП СО РАН, 2019. – 15 с.
9. Юрк Н.А. Повышение качества и безопасности молочной продукции путем внедрения системы менеджмента // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. – 2021. – № 12. – с. 28–31.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**